

ONA TILINI O'QITISHDA VIZUAL VOSITALARDAN FOYDALANISH

Xursanoy Axadjon qizi Sobirova


Namangan davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fani mavzularini o'qitish, ularda vizual o'quv vositalaridan foydalanish, zamonaviy texnologiyalar yordamida dars va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qilingan va qilinishi mumkin bo'lgan ishlar va mavjud muammolar haqida so'z boradi. Bunda, ayniqsa, ona tili fanini tabiiy fanlar bilan aloqadorlikda o'qitish jarayonida vizual vositalar foydalanish o'zining ijobiy samarasini berishini ko'rishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *vizual vositalar, vizual ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar, slaydlar, audiovizual vositalar, tabiiy fanlar, fanlararo integratsiya.*

USE OF VISUAL TOOLS IN TEACHING MOTHER LANGUAGE

Abstract: *In this article, the work done and can be done to improve the quality of lessons and education with the help of modern technologies, as well as the current problems is talked about. In this case, we can see that the use of visual*



tools has a positive effect, especially in the process of teaching mother tongue science in connection with natural sciences.


Key words: *visual aids, visual technical aids, slides, audiovisual aids, natural sciences, interdisciplinary integration.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В данной статье рассказывается о проделанной и возможной работе по повышению качества уроков и образования с помощью современных технологий, а также о текущих проблемах. В данном случае мы видим, что использование наглядных средств дает положительный эффект, особенно в процессе обучения родному языку в связи с естественными науками.*

Ключевые слова: *визуальные средства, наглядные пособия, технические средства, слайды, аудиовизуальные средства, естественные науки, междисциплинарная интеграция.*


Hozirgi kunda mustaqil respublikamizda ta'lim sohasi o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Davrimizning hayotiy ehtiyojlari maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni, har tomonlama puxta bilim olgan, fan va texnika asoslari bilan qurollangan kelajak



avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bizning vazifamiz – to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat‘iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o‘rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat‘iyat bilan harakat qilishimiz zarur”¹ deb ta‘kidlaganlari bejiz emas. Negaki, taraqqiyotga erishishda mamlakat jtimoiy tizmining barcha sohalari faol bo‘lmoqligi shart. Umumta‘lim maktablarining asosiy vazifasi o‘quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o‘stirish; ularni o‘z-o‘zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o‘z fikri va his-tuyg‘ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olish, ma‘lum fanlar yuzasidan turli bilim va malakalarni hosil qilish, to‘la savodxonlikni ta‘minlash, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat². Bu vazifani amalga oshirishda o‘qituvchi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq o‘quvchilarni ongli, yuksak saviyali, g‘oyaviy siyosiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda o‘qituvchining bilimi yoki undagi to‘plangan tajribaning o‘zi yetarli emas. Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, avvalo, bu sifatlarni o‘zimizda mujjasmalashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga ta‘lim tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan


¹ Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016.

² Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури // ЎзР Халқ таълими вазириликнинг ахборотномаси. №1. – Тошкент. 47-бет.



foydalanishni ham taqazo qiladi. O‘quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, amaliyotga ta’siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi. Ta’limda o‘quvchilarga ma’lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o‘zi bugungi kunda yetarli bo‘lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg‘otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya, qolaversa, turli vizual vositalar asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Shunday ekan, ta’lim sifati yetakchi omilga aylangan ushbu davrda vizual vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarga ta’lim berish eng dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Vizual o‘rgatuvchi tizimlar – bu axborot kommunikatsiya vositalarining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o‘qitishning bu usuli hozirgi kunda ta’lim sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha tatbiq qilinmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, vizual vositalar yordamida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar unumlidir. Shuningdek, vizual vositalar asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni




ko‘rish, ya’ni video asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlanib qolinishi 25-30% ga oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio va grafika ko‘rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ga ortadi.

Bundan tashqari, vizual vositalar yordamida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ham ega:

- ✓ berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati keng;
- ✓ ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- ✓ ta’lim olish vaqtining qisqarish imkoniyatiga erishish mumkin;
- ✓ olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishiladi;
- ✓ ta’lim olish vaqtining ixtiyoriyligi va moslashuvchanligi.


Vizual vositalar yordamida o‘tilgan darslar ana shunday afzalliklariga egaligi bilan an’anaviy nazariyaga asoslangan darslardan qiziqarliroq va samaraliroq hisoblanadi. Jumladan, ona tili darslarida ham o‘quvchilarni darsga qiziqishi va ishtiyoqini oshirish maqsadida turli xil vizual vositalardan foydalangan holda o‘tilgan dars faqat nazariya va qoidalar bilan cheklangan darslarga qaraganda o‘zining ko‘proq ijobiy natijalarini beradi. Hatto yangi nashrdan chiqayotgan darsliklarimizda ham shunday vizual vositalardan juda

ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



unumli foydalanilganini ko'plab o'rinlarda ko'rishimiz mumkin. Bunda fanlararo integratsiya jarayonida ham vizual vositalar alohida ahamiyatga ega ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Shundan kelib chiqib, ona tili fanini tabiiy fanlar bilan aloqasini 6-sinfning 2022-yilgi yangi nashri misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, darslikning bosh muqovasiyoq kishiga tabiatni eslatadi (1-rasm).




MUNDARIJA	
Til - muloqot vositasi	5
Shifoxona	13
Qayta ishlanadigan chiqindilar	25
Jigar - eng mehnatkash a'zo	33
Kompyuter grafikasi	40
Import yoki eksport?	49
adabiyot	59
maktab	68
dars	78
bilim	86
savol	96
javob	105
mashg'ulot	
ilm	
Qiziqarli tarjimai holim	
Global isish	
Ko'z nurini asraylik	
Dehqon yurti boqadi	
Teleboshlovchi bo'lib qolsam	
Soliqlarni to'lab borasizmi?	

1-rasm


Ushbu nashrda darslik so'ngida keltiriladigan odatdagi mundarijadan qochilgan va darslikning ilk sahifalaridayoq turli vizual vositalardan foydalanib shakllantirilgan mundarija o'quvchining diqqatini o'ziga tortishi va fanga qiziqishini ortishiga xizmat qilmog'i maqsad qilib olingan.

ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



Darslik sahifalarini varoqlash davomida o‘quvchi zerikib qolmaydi, undagi har bir nazariy mavzuga oid turli qiziqarli ma’lumotlar, matnlar va ko‘rgazmali rasmlar o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qiladi va mavzu doirasida ko‘proq va batafsilroq bilimga ega bo‘lishiga yordam beradi. Masalan, “Shifoxona” mavzusida o‘quvchilar ona tili fanini tabiiy fanlarga bog‘lagan holda shifoxona xizmatidan foydalanishga oid tavsiyalar, grafik ko‘rinishdagi axborotlarni o‘qib tushunish, tibbiyot sohasiga oid til birliklari, so‘z va uning ma’nodoshlari, undalma haqida atroflicha ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar dastlab audiovizual vosita yordamida so‘zlarni tinglaydilar hamda talaffuz qilib ko‘radilar. So‘ngra ushbu so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobili yoki izohini topishga harakat qiladilar. Bu topshiriq asosida o‘quvchilarning tinglab tushunish malakasi va fikrlash qobiliyatlari sinovdan o‘tkaziladi.

Keyingi topshiriqda esa o‘quvchilardan “Shifoxona” mavzusiga oid rasmlarga diqqat qilgan holda quyidagi savollarga javob berishlari talab etiladi:




2-rasm

1. *Shifoxona deganda xayolingizda birinchi nima gavdalanadi?*
2. *Siz qaysi shifokor qabulida bo‘lgansiz?*
3. *Shifoxonada bemorlar qabul qiluvchi xonalar qanday nomlanadi? Ularning o‘zbek tilida muqobili bormi? Qanday?*
4. *Shifokor qabulida eng ko‘p qaysi so‘z va gaplar ishlatiladi?*

Bu topshiriq o‘quvchilarning tibbiy savodxonliklari qay darajada ekanligini va yon-atroflarida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga qanchalik e‘tiborli ekanliklarini aniqlab olishda va erkin fikr bildira olish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Navbatdagi topshiriqda o‘quvchilar yuqorida ko‘rgan rasmlari asosida



atamalarni izohlab yozishlari kerak bo‘ladi.


Namuna: *pediatr – bolalar shifokori*

Yana bir yozma mashqda esa o‘quvchilar shifokor va bemor o‘rtasidagi suhbatda qanday so‘z va gaplardan foydalanilishini haqida yozmoqliklari lozim bo‘ladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad egallangan bilimlar asosida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish , qolaversa, sinovdan o‘tkazish hamdir.

Namuna: - *sizni nima bezovta qilyapti?*



3-rasm



Navbatdagi mashqdagi diagrammaga qarab o'quvchilar hududlar bo'yicha kasalliklar ulushi haqida so'zlab berishlari talab qilinadi. Bunda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishlari darkor hisoblanadi:


- jadvalning nomi;
- hududlar;
- ranglar nimani anglatayotgani;
- raqamlarda nimalar aks etayotgani.



4-rasm

Ushbu mashq orqali o'quvchilarning grafik ko'inishdagi axborotlarni o'qib tushunish malakasi sinovdan o'tkaziladi va yanada mustahkamlanadi.

Uyga vazifa sifatida o'quvchilarga shifokor ko'rigiga borishda qanday




muhim gigiyenik qoidalar va muomala odobiga rioya qilish kerakligiga oid tavsiyalar yozib kelish buyuriladi. Shu orqali o‘quvchilarning tibbiy va imloviy savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati qay darajada ekanligi tekshiriladi.

Yuqorida biz birgina mavzu doirasida ona tili fanini tabiiy fanlarga bog‘lab o‘qitishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan turli xil vizual vositalar haqida fikr yuritdik. Shulardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, ona tilini o‘qitishda vizual vositalardan foydalanish ta‘lim sifatini va samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki ushbu vositalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘zining qiziqarliligi, tinglovchining diqqatini jamlab olishi va, eng asosiysi, ko‘z bilan ko‘rgan voqea-hodisalarning xotirada uzoq muddat saqlanib qolishligi bilan qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016.
2. Azimova I, Mavlonova K, Quronov S va boshq. Ona tili: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik . – T.: O‘qituvchi, 2022.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
4. Saidova, M. (2019). MAN, LANGUAGE AND CULTURE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(4), 223-226.

ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



5. Кузиев, У. Я. (2017). About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbek language and dictionaries). In Научные исследования: теория, методика и практика (pp. 281-286).
6. KUZIYEV, U. (2018). About bases of classification of the words in composing new complanatory dictionaries. Scientific journal of the Fergana State University, 1(1), 104-106.
7. <http://www.ziyonet.uz>
8. <http://www.pedagog.uz>